



## AKSIYADORLIK JAMIYATINING INNOVATSION FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Axmedov Mirshod Nabijonovich**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning yuridik department boshlig‘i o‘rinbosari  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15773753>

### Annotatsiya

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish”<sup>1</sup> masalasi alohida belgilab qo‘yildi. Bunda korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor qilish va faoliyat shaffofligini ta‘minlash, aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kabi jihatlariga ustuvor darajada e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekisto Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida<sup>2</sup>gi 60-sonli farmonini ijrosini amalga oshirish.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmonidan

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

oktabrdagi PF-6096-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun shartsharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2006- yil 24-iyuldagi PQ-424-son “Davlat aktivlariga ega ayrim yirik aksiyadorlik kompaniyalari kengashlarining tarkiblarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son “Davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dolzarb ahamiyat kasb yetadi.

**Kalit so‘zlar:** Korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyatlari, innovatsion faoliyat, raqamli transformatsiya, moliyaviy nazorat, qaror qabul qilish, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi.

Zamonaviy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyati ko‘plab omillar ta‘sirida shakllanadi. Innovatsion faoliyat korxonaning raqobatbardoshligini ta‘minlash, bozordagi mavqeini mustahkamlash va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tahlilda aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillar, ularning tasnifi, ta‘sir mexanizmlari va boshqarish usullari ko‘rib chiqiladi.

**Innovatsion faoliyatga ta‘sir etuvchi omillarning umumiy tasnifi.** Tashkilot yoki mamlakatda innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va rivojlantirish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillar majmuasidir. Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

### **1. Ta‘sir manbasi bo‘yicha:**

- **Ichki omillar** – kompaniyaning ichki muhitidan kelib chiquvchi ta‘sirilar (masalan: moliyaviy imkoniyatlar – byudjet, investitsiya oqimi, R&D uchun ajratilgan mablag‘; kadrlar salohiyati – malakali xodimlar, ilmiy darajaga ega mutaxassislar mavjudligi; tashkilot ichki madaniyati – innovatsiyalarga ochiqlik, xodimlarning yangilikka intilishi; rahbariyat yondashuvi – strategik qarorlar, menejment innovatsiyaga bo‘lgan munosabati; texnik infratuzilma – zamonaviy texnologiyalar, uskunarlar, AKT vositalari mavjudligi);

- **Tashqi omillar** – kompaniyaning tashqi muhitidan kelib chiquvchi ta‘sirilar (masalan: davlat siyosati – innovatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar,



grantlar, soliq imtiyozlari; bozor kon'yunkturasi – talab va taklif holati, raqobat darajasi, mijoz ehtiyojlari; ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik – oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlar bilan aloqalar; xalqaro aloqalar va texnologik transfer – chet el investitsiyasi, litsenziyalar, xorijiy texnologiyalar).

## 2. Ta'sir yo'nalishi bo'yicha:

- **Rag'batlantiruvchi omillar** – innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (masalan: davlat tomonidan ko'rsatiladigan grantlar va subsidiyalar; ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqin hamkorlik; texnologik infratuzilmaning rivojlanganligi; yuqori malakali kadrlar mavjudligi; bozorda yuqori talabga ega yangi mahsulotlar ehtiyoji; soliq imtiyozlari va qonunchilikdagi yengilliklar; korporativ innovatsion strategiyaning mavjudligi; investorlarning innovatsiyaga qiziqishi);

- **To'sqinlik qiluvchi omillar** – innovatsion faoliyatni cheklovchi yoki to'xtatuvchi omillar (masalan: moliyalashtirish yetishmasligi yoki investitsiya xavfi; past malakali ishchi kuchi va mutaxassislar yetishmovchiligi; yaroqsiz yoki eskirgan texnologik baza; bozorning yopiq yoki cheklanganligi; patentlash va intellektual mulk muhofazasining zaifligi; atentlash va intellektual mulk muhofazasining zaifligi; byurokratik to'siqlar va huquqiy noaniqlik; infrastrukturaviy kamchiliklar (internet, transport, logistika)).

## 3. Ta'sir ko'lami bo'yicha:

- **Makrodarajadagi omillar** – butun iqtisodiyot miqyosida ta'sir etuvchi omillar (masalan: davlatning innovatsion siyosati – strategiyalar, qonunlar, dasturlar (masalan, "Innovatsion rivojlanish konsepsiyasi – 2030"); milliy iqtisodiyot barqarorligi – inflatsiya darajasi, valyuta kursi, iqtisodiy o'sish sur'atlari; moliyaviy tizim va investitsion muhit – bank kreditlari, grantlar, xorijiy investitsiyalar mavjudligi; ta'lim va ilm-fan tizimi – ilmiy salohiyat, otm va ilmiy-tadqiqot institutlarining holati; axborot-kommunikatsion infratuzilma – internet tezligi, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning tarqalishi);

- **Mezodarajadagi omillar** – alohida tarmoq yoki mintaqa miqyosida ta'sir etuvchi omillar (masalan: alohida tarmoqdagi raqobat – masalan, farmatsevtika yoki avtomobil sohasidagi innovatsion bosim; hududiy infratuzilma darajasi – sanoat zonalari, logistika imkoniyatlari, elektr ta'minoti; sohaviy ilmiy markazlar mavjudligi – tarmoq institutlari, texnoparklar, klasterlar; mintaqaviy rag'batlantirish choralari – hududiy soliq yengilliklari, mahalliy grantlar);

- **Mikrodarajadagi omillar** – alohida aksiyadorlik jamiyatlari miqyosida ta'sir etuvchi omillar (masalan: kompaniyaning strategik yondashuvi –



innovatsiyalarni asosiy yo'nalish sifatida belgilashi; ichki R&D (tadqiqot va rivojlanish) bo'limining mavjudligi; xodimlarning malakasi va motivatsiyasi; ichki madaniyat va yangiliklarga ochiqlik; moliyaviy resurslarning mavjudligi va riskka tayyorlik darajasi).

#### 4. Ta'sir muddati bo'yicha:

- **Qisqa muddatli omillar** – vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi omillar, odatda 1 yildan kam muddat davomida innovatsion faoliyatga ta'sir qiladi (masalan: soliq stavkalaridagi o'zgarishlar (masalan, bir yillik imtiyozlar); valyuta kursining beqarorligi; global bozorlardagi narxlarning tez o'zgarishi; pandemiya yoki favqulodda holatlar ta'siri; grant tanlovlari yoki qisqa muddatli moliyalashtirish dasturlari; yangi raqobatchining kirib kelishi). Misol: 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli ko'plab startaplar moliyaviy muammolarga duch kelgan;

- **Uzoq muddatli omillar** – doimiy yoki uzoq muddatli ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bu omillar bir necha yil yoki undan ko'proq davom etadigan, barqaror va tizimli ta'sir ko'rsatadi (masalan: davlatning strategik yo'nalishlari va qonunchilik barqarorligi; ta'lim tizimining sifati va kadrlar salohiyati; ilmiy va texnologik infratuzilmaning rivojlanishi; ijtimoiy-madaniy yondashuv: innovatsiyaga ochiqlik; patent tizimining rivojlanish darajasi; tashkilotlarda innovatsion madaniyat shakllanishi). Misol: Germaniyada 2000-yillardan beri amalga oshirilayotgan "Industrie 4.0" strategiyasi sanoatda chuqur innovatsion transformatsiyani ta'minlamoqda.

#### Innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi tashqi omillar:

##### 1. Siyosiy-huquqiy omillar:

- **Davlat innovatsion siyosati** – innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui. Masalan, O'zbekistonda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun, "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" kabi hujjatlar qabul qilingan;

- **Normativik-huquqiy baza** – innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari. Masalan, O'zbekistonda innovatsion faoliyat sohasida 10 dan ortiq qonunlar va 40 dan ortiq qonunosti xujjatlari amal qiladi;

- **Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish darajasi** – patentlar, mualliflik huquqlari, sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish mexanizmlari. Masalan, Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda innovatsion faollik odatda yuqori bo'ladi;



- **Siyosiy barqarorlik** – mamlakatdagi siyosiy vaziyat barqarorligi innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## 2. Iqtisodiy omillar:

- **Iqtisodiy o'sish** – iqtisodiy o'sish sur'atlari innovatsion faollikka ta'sir ko'rsatadi. Masalan, YaIM o'sish sur'ati 2023 yilda 5,9% ni tashkil etdi, bu esa innovatsion faoliyat uchun qulay sharoit yaratdi;

- **Inflyatsiya** – narxlar o'sishi innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yuqori inflyatsiya sharoitida uzoq muddatli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish qiyinlashadi;

- **Valyuta kursi** – valyuta kursining beqarorligi innovatsion faoliyatga investitsiyalarni cheklaydi;

- **Foiz stavkalari** – kredit resurslari narxi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Masalan, Yuqori foiz stavkalari innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni qimmatlashtiradi;

- **Soliq siyosati** – innovatsion faoliyat uchun soliq imtiyozlari mavjudligi. Masalan, Innovatsion faoliyat uchun soliq imtiyozlari aksiyadorlik jamiyatlarini innovatsiyalarga investitsiya kiritishga rag'batlantiradi;

- **Kapital bozori rivojlanganligi** – fond bozori, venchur kapital, xususiy investitsiya fondlari rivojlanganlik darajasi. Masalan, Yuqori rivojlangan kapital bozori innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## 3. Texnologik omillar:

- **Texnologik rivojlanish darajasi** – mamlakatdagi texnologik rivojlanish darajasi innovatsion faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yuqori texnologik rivojlanish darajasi innovatsion faoliyat uchun qulay sharoit yaratadi;

- **Texnologiyalar transferi** – texnologiyalarni o'zlashtirish va tarqatish mexanizmlari rivojlanganligi. Masalan, Texnologiyalar transferi markazlari innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Innovatsion infratuzilma** – texnoparklar, innovatsion markazlar, biznes-inkubatorlar rivojlanganlik darajasi. Masalan, O'zbekistonda oxirgi yillarda 20 dan ortiq texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etildi;

- **Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) rivojlanganlik darajasi** – ITTKI hajmi va sifati. Masalan, O'zbekistonda ITTKI xarajatlari YaIMga nisbatan 0,2% ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan ancha past.

## 4. Ijtimoiy-madaniy omillar:

- **Innovatsion madaniyat** – jamiyatda innovatsiyalarga munosabat. Masalan, Innovatsiyalarga ijobiy munosabat innovatsion faoliyatni

faollashtiradi;

- **Ta'lim tizimi** – ta'lim tizimi sifati va innovatsion kadrlar tayyorlash. Masalan, Yuqori sifatli ta'lim tizimi innovatsion faoliyat uchun malakali kadrlar tayyorlaydi;

- **Aholi tarkibi** – aholi yoshi, ta'lim darajasi, kasbiy tayyorgarligi. Masalan, Yosh va ta'lim darajasi yuqori bo'lgan aholi innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Iste'molchilar xulq-atvori** – yangi mahsulot va xizmatlarga iste'molchilar munosabati. Yangiliklarga ochiq iste'molchilar innovatsion mahsulotlar bozorini kengaytiradi.

#### 5. Bozor omillari:

- **Raqobat darajasi** – tarmoqdagi raqobat darajasi. Masalan, Yuqori raqobat korxonalarni innovatsion faoliyatni faollashtirishga undaydi;

- **Bozor sig'imi** – bozor hajmi va o'sish sur'atlari. Masalan, Keng bozor innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- **Iste'molchilar talabi** – iste'molchilar ehtiyojlari va talablari. Masalan, Yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar** – xom ashyo va materiallar yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar. Masalan, Ishonchli yetkazib beruvchilar innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

#### 6. Global omillar:

- **Globallashuv** – iqtisodiy globallashuv jarayonlari. Masalan, Globallashuv jarayonida innovatsion texnologiyalarga talab oshadi;

- **Xalqaro raqobat** – xalqaro bozorlardagi raqobat. Masalan, Xalqaro raqobat sharoitida innovatsion faoliyat raqobatbardoshlikni ta'minlaydi;

- **Xalqaro standartlar** – xalqaro sifat standartlari, ekologik standartlar. Masalan, Xalqaro standartlarga muvofiqlik innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Xalqaro hamkorlik** – xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik. Masalan, Xalqaro hamkorlik innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### Innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi ichki omillar:

##### 1. Strategik boshqaruv omillari:

- **Kompaniya strategiyasi** – innovatsion faoliyatning kompaniya strategiyasidagi o'rni. Masalan, Innovatsion strategiya mavjudligi innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Boshqaruv tizimi** – boshqaruv tizimi samaradorligi. Masalan, Samarali boshqaruv tizimi innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi;

- **Korporativ madaniyat** – innovatsion korporativ madaniyat. Masalan, Innovatsiyalarga ochiq korporativ madaniyat innovatsion faoliyatni faollashtiradi;

- **Qaror qabul qilish jarayoni** – qaror qabul qilish tezligi va sifati. Masalan, Innovatsion loyihalar bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

## **2. Resurs ta'minoti omillari:**

- **Moliyaviy resurslar** – innovatsion faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlari. Masalan, Yetarli moliyaviy resurslar innovatsion loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi.

- **Inson resurslari** – yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy xodimlar va muhandislar mavjudligi. Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlari. Masalan, IT-park rezidentlariga mo'ljallangan dasturchilar tayyorlash kurslari;

- **Moddiy-texnik baza** - laboratoriyalar, texnoparklar, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari. Zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarish liniyalari. Masalan, "InnoTex" texnoparki doirasida ochilgan nanomateriallar laboratoriyasi;

- **Axborot resurslari** - innovatsion faoliyatga oid ma'lumotlar, patentlar, ilmiy maqolalar. Bozorlar va texnologiyalar haqida yangilanayotgan ma'lumot bazalari. Masalan, Google Scholar, Scopus va WIPO bazalaridan foydalanish imkoniyati;

- **Tashkiliy va boshqaruv resurslari** - innovatsion jarayonlarni tashkil etuvchi menejerlar va boshqaruv tizimi. Ichki innovatsion madaniyat va qaror qabul qilish tezligi. Masalan, Kompaniyalarda innovatsion menejer lavozimining joriy etilishi.

## **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqola Korporativ boshqaruv tizimiga ega bo'lgan faoliyatda innovatsiyalarni joriy etish haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiyadan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqiladi.

## **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Mamlakatimizda korporativ tuzilmalarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari bir qancha davrlarni o'z qamroviga olgan holda, yildan-yilga takomillashib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida esa korporativ boshqaruv tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasi asosida yaratilgan bo'lib, kundan kunga rivojlanib bormoqda. Buni mamlakatimiz hududida faoliyat yuritib kelayotgan

korporativ boshqaruv shaklidagi iqtisodiy tuzilmalar faoliyati bilan ifodalash mumkin. Shunga qaramasdan quyidagi vazifalarga doimiy e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan barchamizga ma'lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari har qanday korxonada boshqaruv obyekti hisoblanadi hamda har bir moliyaviy qaror pul oqimlari harakati bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq holda qabul qilinishini ta'kidlashimiz lozim. Shundan kelib chiqqan holda aksariyat jamiyat boshqaruvchilari o'z funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayonida moliya xizmati bilan o'zaro hamkorlik asosida faoliyatlarini tashkil etishi lozim deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan bugungi kunda har bir boshqaruvchidan korporativ moliyani boshqarish asoslari haqida chuqur bilimga ega bo'lishni, korporativ tuzilma oldida turgan muammolarni to'g'ri va o'z vaqtida anglashni hamda o'z faoliyatini yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tashkil etishi lozimligini tavsiya qilamiz.

Uchinchidan mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati kabi korporativ tashkilotlar tuzilmasini qurish va ularni innovatsion faoliyatining asosiy tamoyillari va tartibini, huquqiy maqomini belgilash, aksiyadorlar va korporativ munosabatlarning boshqa ishtirokchilari huquqlari va majburiyatlarini tartibga soluvchi korporativ huquq me'yorlarining kompleksini shakllantirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Umumiy holda aksiyadorlik jamiyatlarini innovatsion faoliyati afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyat orqali qisqa muddatda katta miqdorda pul mablag'lari jalb qilish va bu o'z navbatida keng ko'lamli biznes faoliyatini yuritish imkonini beradi. Bunda ustav kapitali va aksiyadorlar soni bo'yicha yuqori chegaralar mavjud emasligi ham cheklanmagan sonda aksiyadorlar birlashuviga imkon berishini alohida qayd etib o'tish lozim.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan katta miqdorda kapital jalb qilinishi o'z navbatida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng miqyosda joriy etish imkonini beradi.

Uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari bir birlik mahsulotga xarajatlarni pasaytirish, xomashyo va materiallarning yirik zaxirasiga egalik qilish, qulay shartlarda (foizlarda) qisqa va uzoq muddatli kreditlar jalb qilish, keng ko'lamli



diversifikatsiyalangan innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, bozor ishtirokchilari uchun aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqligi aksiyalar chiqarish bilan birga turli qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali ham kapital jalb qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Beshinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining mulki to'liqligicha aksiyadorlar mulkidan ajratilgan. Aksiyador o'zi uchun ma'qul risk darajasini o'zi belgilaydi va bankrotlik holatida aksiyaga kiritgan kapitalini yo'qotadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T O'zbekiston 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son
3. "O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarni himoya qilish to'g'risidagi"gi qonun 26.04.1996 y.N 223-I(Yangi tahriri) Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan. O'zR 20.08.2015 y. O'RQ-391-son Qonuni,O'zR 29.12.2015 y. O'RQ-396-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi 356-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 12.01.2022 yildagi 18-sonli qarori.
6. Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007. – 319 б.
7. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / S.E. Elmirzayev; – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 416 b.
8. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. – "Korporativ boshqaruv" Darslik – Toshkent: Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2021. - 448bet.
9. Zaynutdinov Sh.N., Murakaev I.U., Shermuhammedov A.T., Sagdullayev D.T. Kucharov A.S. – "Menejment asoslari" Darslik. T.: - Moliya 2012.
10. Суюнов Д.Х., Холбаев Б.А. Лойиҳа бошқаруви: услуб ва стандартлар: ўқув қўлланма / 2021. – 208 бет
11. Якубов И.О. Стратегик режалаштириш ўқув қўлланма — Т.: ТДИУ, 2004 - 192 бет.
12. Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б. Корпоратив бошқарув, ўқув қўлланма Т.:2010 йил. 128 –б..

